TARIX

1. Quyidagi qaysi tarixiy shaxslar yunon-makedon qo‘shinlariga qarshi kurash olib borgan?
A) Bess, Ashoka
B) Skunxa, To‘maris
C) Chandragupta, Spitaman
D) Miltiad, Leonid

2. Quyidagilarni tarixiy jihatdan tahlil qilib, nuqtalar o‘rniga mantiqan mos keluvchi javobni toping.
1) Suy sulolasi – Li Yuan;
2) Sun sulolasi – Xubilay;
3) Vizantiya imperiyasi – … ;
4) Koryo sulolasi – … .
A) Yustinian I, Sechjon Buyuk
B) Ivan III, O‘qtoy
C) Mixail VIII paleolog, Chingizxon
D) Mehmet II, Li Son Ge

3. Quyidagi davrlarda yuz bergan tarixiy voqealar to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.
1) 1870-yillar;
2) 1880-yillar;
3) 1890-yillar.
a) Ispaniya va AQSH o‘rtasida urush bo‘lib o‘tdi;
b) Fransiya Madagaskarga urush e’lon qildi;
c) Kuba xalqi ispan mustamlakachilariga qarshi o‘n yillik ozodlik kurashini boshladi;
d) ikkinchi ingliz-afg‘on urushi boshlandi.
A) 1-c, 2-b, 3-a B) 1-c, 2-a, 3-b
C) 1-d, 2-b, 3-a D) 1-d, 2-c, 3-a

4. Berilgan voqealardan qaysi biri boshqalariga nisbatan oldinroq sodir bo‘lgan?
A) Fransiyada mutlaq monarxiyaning tugatilishi
B) Germaniyaning ikkinchi marta imperiya deb e’lon qilinishi
C) Fransiya tarixida birinchi konstitutsiyaning qabul qilinishi
D) Veymarda Germaniya Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi

5. Quyidagi tarixiy voqealardan qay biri Hindistonning XIX asr ikkinchi yarmi tarixiga oid emas?
A) “Hindiston milliy kongressi”ning tashkil topishi
B) ish vaqtining 12 soat bilan cheklanishi
C) HMK tarkibida “so‘l” – radikal oqimning shakllanishi
D) sipohilar qo‘zg‘olonining bo‘lib o‘tishi

6. Quyidagi keltirilgan ma’lumotlar ... ga aloqador.
– 1903-yilda Panamada Kolumbiyaga qarshi isyon ko‘tarilishi;
– 1905-yilda Rossiya-Yaponiya tinchlik shartnomasining imzolanishi;
– 1913-yilda Uertaning Meksikada hokimiyatni egallashi.
A) Fransiyaning tashqi siyosati
B) Rossiyaning tashqi siyosati
C) Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati
D) AQSHning tashqi siyosati

7. Myunxen kelishuvining imzolanishi quyidagi qaysi siyosatchining iste’fosiga sabab bo‘lgan?
A) Eduard Dalade
B) Uinston Cherchill
C) Devid Lloyd Jorj
D) Nevill Chemberlen

8. SSSR kosmonavti Yuriy Gagarin insoniyat tarixida birinchi marta koinotga parvoz qilgan. O‘sha paytda AQSH prezidenti kim edi?
A) R. Nikson B) L. Jonson
C) J. Kennedi D) D. Eyzenxauer

9. 1945-yilda Afrika xalqlari kurashida sifat jihatidan yangi davr boshlanganligini o‘zida aks ettirgan V Panafrika kongressi qaysi davlatda bo‘lib o‘tgan?
A) Buyuk Britaniya B) AQSH
C) Fransiya
D) Janubiy Afrika Respublikasi

10. Quyida keltirilganlardan qaysilarida davlat-shaxs-voqea mos ravishda berilgan?
1) R. Erdo‘g‘an – Turkiya – mamlakat NATOga a’zo bo‘lib kirdi;
2) Entoni Bler – Buyuk Britaniya – Iroqqa qarshi koalitsiyada ishtirok etdi;
3) Imomali Rahmon – Tojikiston – mamlakatda fuqarolar urushi boshlandi;
4) M. Saakashvili – Gruziya – mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash e’lon qilindi;
5) Hasan Ruhoniy – Eron – 15 yil ichida boyitilgan uran ishlab chiqarmasligi evaziga G‘arb davlatlari qo‘llagan sanksiyalardan bosqichma-bosqich ozod etilishiga kelishildi.
A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 5
D) 2, 4, 5

11. Tarixiy voqealar to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda ko‘rsatilgan javobni toping.
1) Eronda Islom inqilobi bo‘lib o‘tdi;
2) AQSH va Vyetnam o‘rtasidagi urush yakunlandi;
3) Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti Yevropa Ittifoqiga aylantirildi;
4) SSSRda “qayta qurish” siyosati boshlandi.
A) 2, 1, 3, 4 B) 1, 2, 4, 3
C) 3, 2, 1, 4 D) 2, 1, 4, 3

12. 1997-yilda, “Osiyo inqirozi” arafasida, Tailand hukumati milliy valyuta – bahtning kursini AQSH dollariga nisbatan pasaytirishga majbur bo‘ldi. Ushbu ma’lumotdan kelib chiqib hukumat qaysi iqtisodiy jarayonni amalga oshirganini aniqlang.
A) inflyatsiya B) devalvatsiya
C) deflyatsiya D) repatriatsiya

13. Quyidagi ma’lumotlar qaysi tarixiy shaxs haqida ekanligini aniqlang.
“U Uchinchi respublika davrida Fransiyada bosh vazir bo‘lib ishlagan. Irq va mustamlakachilikka oid qarashlari munozara va tanqidlarga sabab bo‘lgan. Ba’zi nutqlari va harakatlari zamonaviy standartlarga ko‘ra irqchilik sifatida talqin qilinadi. Chunonchi, uning davrida Tunisda Fransiya hukmronligi o‘rnatilgan va Madagaskarga qarshi urush e’lon qilingan. Ichki siyosatda 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun majburiy bepul ta’lim, ta’limning dunyoviyligini ta’minlash kabi muhim islohotlarni amalga oshirgan”.
A) J. Klemanso B) A. Tyer
C) S. Karno D) J. Ferri

14. Quyidagi qaysi xususiyat zardushtiylik diniga xos emas?
A) zardushiylar har kuni tongda Quyosh chiqishiga ta’zim qilishgan
B) insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi hisoblangan
C) marhumning jasadini yerga ko‘mish, olovda kuydirish, suvga tashlab yuborish ta’qiqlangan
D) har qanday xohish-istak azob-uqubatlar olib keladi, deb hisoblangan

15. Quyida Xiva xonlari nomlari berilgan. Ular bilan bog‘liq ma’lumotlar mos ravishda ko‘rsatilgan javobni toping.
1) Muhammad Aminxon;
2) Asfandiyorxon;
3) Said Muhammadxon.
a) xonlik chegarasida yangi istehkom qurilganligidan norozi bo‘lib, Rossiya imperatoriga maktub yo‘lladi;
b) uning davrida bir guruh qoraqalpoqlar Rossiya hukumatidan qoraqalpoqlarni imperiya fuqaroligiga o‘tkazilishini so‘rab murojaat qildilar;
c) Ko‘hna ark yoniga Kalta minor nomi bilan mashhur bo‘lgan minorani qurdirdi;
d) boshqaruv tizimini tartibga solishni nazarda tutuvchi “Islohotlar loyihasi”ni qabul qildi.
A) 1-c, 2-d, 3-b B) 1-c, 2-d, 3-a
C) 1-a, 2-d, 3-b D) 1-a, 2-c, 3-b

(97) 299 00 66
XORAZM
@TESTLIDER


16. Quyidagi bandlar mazmuniga oid yakuniy hukmni aniqlang.
I. Mo‘g‘ullarning ulug xoqoni O‘qtoy davrida xorazmshohlar sulolasi butkul barham topgan.
II. Umaviy xalifa Nosirning Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuborgan 20 minglik qo‘shini Basra yaqinidagi jangda tor-mor keltirilgan.
III. Jaloliddin Manguberdi Movarounnahr va Xurosonni tark etgach, dastlab Shimoliy Hindistonda, so‘ngra Kirmon, Fors va Isfahonda, keyinchalik Ozarbayjonda o‘z davlatini barpo etgan.
A) I – noto‘g‘ri; II – noto‘g‘ri; III – to‘g‘ri
B) I – to‘g‘ri; II – noto‘g‘ri; III – to‘g‘ri
C) I – noto‘g‘ri; II – to‘g‘ri; III – noto‘g‘ri
D) I – to‘g‘ri; II – noto‘g‘ri; III – noto‘g‘ri

17. Quyidagilardan qaysilari YUNESKO tomonidan yuritiladigan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatidan o‘rin olgan?
A) o‘zbek palovi, Navro‘z, Boysun madaniy muhiti
B) Shashmaqom, askiya, Shahrisabz shahri
C) sumalak, katta ashula, “Alpomish” dostoni
D) Samarqand noni, sumalak, Umrbek laqqi latifalari

18. 2010-yil iyulda Qirg‘izistonda ekstremistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O‘zbekiston o‘z hududiga qancha qochqinni qabul qilgan?
A) 80 mingga yaqin
B) 10 mingga yaqin
C) 200 mingdan ortiq
D) 100 mingdan ortiq

19. Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasida siyosiy shartnomalar imzolangan yillar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
1) 1868-yil; 2) 1871-yil; 3) 1873-yil;
4) 1886-yil; 5) 1885-yil; 6) 1888-yil.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 3, 5, 6
D) 1, 3, 4

20. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



A) 1, 3 B) 2, 4 C) 3, 5 D) 4, 6

21. 1918–1935-yillarda bo‘lib o‘tgan istiqlolchilik harakatining eng zaif tomonlari qaysi javoblarda keltirilgan?
1) harakatning Turkiston mintaqasida yagona markaz ostida to‘liq birlasha olmaganligi;
2) turkiylarning turkistonliklar va buxoroliklardan boshqa xalqlari harakatni qo‘llab-quvvatlamaganligi;
3) harakat vujudga kelgan davrda unda asosiy g‘oya va maqsad bo‘lmaganligi;
4) jadidchilik harakati a’zolari va qo‘rboshilar o‘rtasida kelishuvga erishilmaganligi;
5) ba’zi yetakchi shaxslar orasidagi kelishmovchilik va nizolar.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 5 D) 3, 5


22. XX asrning 20-yillari o‘rtalariga kelib O‘rta Osiyoning siyosiy xaritasida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
A) Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi
B) uchta mustaqil davlat: Turkiston (Qo‘qon) muxtoriyati, Buxoro va Xorazm respubliklari tashkil etildi
C) sobiq Ittifoqning parchalanishi oqibatida ittifoqdosh respublikalar o‘rnida mustaqil beshta davlat tashkil topdi
D) Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi

23. Quyidagilardan 1920-yillarning kashfiyotlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
1) uran yadrolari ajralib chiqishining zanjirli reaksiyasi; 2) harakatlanuvchi tasvirni elektron-nurli trubka yordamida masofaga uzatish; 3) penitsillin; 4) lazer; 5) mikrozarra – elektron; 6) yarimo‘tkazgichli integral mikrosxema; 7) ovozli kino; 8) insulin.
A) 1, 2, 3, 7 B) 3, 4, 6, 8
C) 2, 3, 7, 8 D) 1, 5, 6, 7

24. Fransiyada hukumat qarorgohi Parijdan Versalga ko‘chirilishi quyidagi qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan (XIX asr)?
A) Buyuk Fransuz burjua inqilobining boshlanishi
B) Robespyer boshliq yakobinchilar diktaturasining o‘rnatilishi
C) Napoleon III boshchiligida ikkinchi imperiyaning vujudga kelishi
D) Fransiya-Prussiya urushi davrida Parijning qamal qilinishi

25. Quyidagi tarixiy shaxslarning yashab o‘tgan davri va faoliyati bilan bog‘liq ma’lumot mos ravishda to‘g‘ri berilgan javobni toping.
I. Jiyen Jirov; II. Kunxo‘ja Ibrohim; III. Berdaq.
1) 1730–1784-yillar; 2) 1827–1900-yillar; 3) 1799–1880-yillar.
a) “O‘roqchilar”, “El bilan” she’rlarining muallifi.
b) 25 yoshida iste’dodli shoir sifatida xalqqa tanilgan.
c) baxshi sifatida “Alpomish”, “Qirqqiz” kabi dostonlarni zo‘r mahorat bilan kuylagan;
A) I. 1-b; II. 3-a; III. 2-c
B) I. 2-c; II. 3-a; III. 1-b
C) I. 3-c; II. 2-b; III. 1-a
D) I. 1-c; II. 3-a; III. 2-b

26. Quyida berilgan ma’lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.



a) “Islom dinining isboti” degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan;
b) kalom ilmiga oid “Bahr al-kalom” asarining muallifi;
c) fiqh ilmiga oid “Hidoya” asarining muallifi;
d) Samarqandda yodgorlik majmuyi barpo etilgan;
e) 2000-yili O‘zbekistonda tavallud ayyomi keng nishonlangan;
f) bizgacha faqat 2 ta asari saqlanib qolgan;
A) I – a, b; II – c, d; III – e
B) I – a, c; II – b, d; III – f
C) I – b, d; II – a, c; III – e
D) I – d, f; II – a, c; III – e

27. Quyidagi jadvalda voqea va uning natijasi o‘zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

№	Sabab	Natija
1	Den Syaopin tomonidan Tyananmin maydonidagi namoyish kuch bilan tarqatib yuborildi.	Ko’pchilik industrial mamlakatlar bilan munosabatlar keskin yomonlashdi.
2	Inglizlarga qarshi kurashgan Xalq harakati yetakchisi Maxatma Gandi o‘ldirildi.	Hindistonda musulmonlar va hind mutaasiblari o‘rtasida diniy urushlar avj olib ketdi.
3	Hindiston bosh vaziri Indra Gandi tomonidan iqtisodga davlat aralashuvining kamaytirildi.	mamlakat g‘alla bilan o‘zini o‘zi ta’minlay boshladi.
4	Chilida davlat to‘ntarishi amalga oshirilib, hokimiyatga A. Pinochet boshchiligida harbiy xunta keldi.	Konstitutsiya va deyarli barcha erkinliklar bekor qilindi.
5	Ukraina prezidenti V. Yanukovich Yevroittifoq bilan hamkorlik to‘g‘risida kelishuvni imzolashdan bosh tortdi.	Kiyev va boshqa shaharlarda “Yevromaydan” deb nom olgan ommaviy chiqishlar bo‘lib o‘tdi.


A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3 C) 3, 4, 5 D) 2, 3, 4

28. Quyidagi jadvalda ma’lumotlar to‘g‘ri moslashtirilgan qatorlarni toping.

№	Davlat	Voqea	Hukmdor
1	Arab xalifaligi	arablar jangsiz Marv shahrini egalladi	Usmon
2	Fransiya	qo‘shimcha jon solig‘i joriy etildi	Richard II
3	G‘aznaviylar davlati	Hindistonda o‘z nomidan oltin va kumush tangalar zarb ettirdi	Mahmud
4	Koreya	dvoryan bo‘lmagan qatlamga ham davlat xizmatida ishlash imkoniyati yaratildi	Qirol Kojon
5	Rossiya	Alyaska AQSHga sotib yuborildi	Aleksandr II


A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 2, 3, 5

29. Quyidagi sxemani tahlil qilib, raqamlar bilan ko‘rsatilgan bo‘shliqlarga mos so‘zlar qo‘yilgan javobni toping.



A) 1 – Vilgelm II; 2 – Nikolay II; 3 – gabsburglar; 4 – Avstriya-Vengriya
B) 1 – Vilgelm I; 2 – Nikolay I; 3 – gogensollernlar; 4 – Buyuk Britaniya
C) 1 – Vilgelm I; 2 – Aleksandr III; 3 – gabsburglar; 4 – Avstriya-Vengriya
D) 1 – Vilgelm II; 2 – Nikolay II; 3 – gogensollernlar; 4 – Avstriya-Vengriya

30. Xaritada nechanchi raqam bilan belgilangan hudud VIII asr boshlarida Arab xalifaligi tomonidan istilo etilgan?



A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

TARIX, GEOGRAFIYA, HUQUQ FANLARIDAN TAYYORLOV KURSLARIGA MARHAMAT!



KAFOLATLI TA'LIM (SHARTNOMA BILAN MUSTAHKAMLANGAN)

EXE (KOMPYUTER) TESTLAR

Taqrizlangan, mukammal o'quv qo'llanmalari


JALOL BOLTAYEV, SHERZOD RO'ZMETOV

(97) 299-00-66, (91) 917-33-55

@TESTLIDER

TESTOLOGIYA INNOVATSIYA METODIKA

BOSHQA KITOBLARNI @PORTFOLIO_TESTLIDER DAN TOPASIZ.



GEOGRAFIYA fani doirasida JALOL BOLTAYEV tomonidan tayyorlangan o'quv kitoblari





TARIX VA GEOGRAFIYA FANLARIDAN KAFOLATLANGAN O‘QUV KURSI! BU QANDAY?

«O‘qishga kirish uchun yillab tayyorgarlik ko‘rish, bir yil o‘qishdan yiqilish, vunderkind bo‘lish shart emas! Kafolatlangan (hujjat bilan) va aniq maqsadlarga yo‘naltirilib ishlab chiqilgan o‘qituvchi metodi va o‘sha metodga javob berish yetarli!»

— Abituriyentga mas’ul shaxs (ota-ona) bilan mas’ul repetitor Jalol Boltayev o‘rtasida SHARTNOMA (NATIJA KAFOLATI TO‘G‘RISIDA) tuziladi. Shartnomaga muvofiq abituriyentlarning natijalari (o‘qishga kirishi) kafolatlanadi. Agar abituriyent OTMga kira olmasa, shartnomaga muvofiq kurs to‘lovi qaytarib beriladi.

KURS DASTURI HAQIDA QISQACHA:

✓ **Har bir abituriyentning darsliklar kesimida o‘zlashtirish darajasi Jalol Boltayev ishlab chiqqan dastur bo‘yicha 100 % lik hisobda aniqlab boriladi va abituriyent natijalari haqida unga mas’ul shaxsga oyma-oy hisobot beriladi.**

✓ **Kurs dasturi/metodi 1 yil ichida maksimal natijaga erishishga mo‘ljallangan.**

✓ **Kurs dasturi/metodi haqida batafsil ma’lumot:** https://telegra.ph/KAFOLATLANGAN-NATIJA-BU-QANDAY-08-22

O‘quv kurslarimizga marhamat!

- **Repetitorlar: Jalol Boltayev, Sherzod Ro‘zmetov**
- **Telefon: (97) 299-00-66**
- **Manzil: Xorazm v. Urganch sh., «ARASTU» o‘quv markazi**
- **Mo‘ljal: UrDU ro‘parasi, «Adidas» do‘koni yoni**